

Talabalarning Ma'naviy-Axloqiy Tarbiyasida Hadis Ilmining Ilmiy-Nazariy Asoslari

Fayzullayeva Gulnoza¹

Annotatsiya: Maqolada hadisshunos olimlarimizning hadis ilmiga oid olib borilgan tadqiqot ishlari, buyuk muhaddis al-Buxoriy, va at-Termiziyning hayoti va asarlariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar, mamlakatimizda va jahon sharqshunosligida ham muayyan ahamiyatga ega bo'ib shu haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: hadis, hadisshunoslik, islomshunoslik, inson kamoloti, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, hadis, hadis ilmi, ma'naviy meros, hadis ilmiga oid ma'naviy axloqiy o'g'itlar.

KIRISH

Mamlakatimizda hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan bo'lib, milliy urf-odatlar, an'analar, Imom Buxoriy Beruniy, Forobiy, Muso At Termiziy singari buyuk allomalar, olimlar, hadisshunoslarning mulohazalari bugungi kunda komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ota-bobolarimizning ulkan madaniy- ma'rifiy meroslaridan biri hadisi sharif sanaladi. Hadis o'qib, o'rganib, o'z-o'zini ma'naviy tarbiyalash vositasi bo'lib oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim ma'naviy axloqiy tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. «Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, hadis ilmiga oid ma'naviy axloqiy o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuchquvvat beradi. Jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning ana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoitlar yaratib, biz farzandlarimizni dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilib kelmoqdamiz.»²

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ham ta'lim, ham ilmiy dargoh sifatida islomshunoslik sohasi rivojida sezilarli o'rin egallab kelmoqda. Jumladan bu ilmiy dargohda olib borilgan ilmiy izlanishlarning kattagina qismini ham Qur'oni karim va uning tafsirlariga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Ular jumlasiga “Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII-XV asrlar)”, “Abu Bakr Jassos “Ahkom al-Qur'on” tafsirining hanafiy mazhabi rivojidagi ahamiyati”, “Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni”, “Abu-l-Lays as-Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rni”, “Abu Hafs Nasafiy “Taysir fi-t-tafsir” asarining manbashunoslik tadqiqi” mavzularidagi tadqiqotlarni kiritish mumkin.³ Bugungi kunda o'ziga xos sharqona uslubda barpo etilgan ushbu salobatli majmua inshoati Islom olamining eng tabarruk qadamjolaridan biri sifatida yuksak qadrlanib, dunyoning turli burchaklaridan tinimsiz kelayotgan minglab ziyoratchilar bilan gavjum. So'nggi yillarda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan buyuk muhaddisning hayoti va ilmiy ma'naviy merosi haqida juda ko'plab kitoblar, risolalar, maqolalar nashr etildi. Mazkur markaz tomonidan muntazam ravishda chop etilayotgan

¹ Buxoro davlat universitetining Pedagogika Instituti pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

² ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ ЎЗБЕКИСТОН МУСУЛМОНЛАРИ ИДОРАСИ ИМОМ ТЕРМИЗИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ УБАЙДУЛЛА УВАТОВ МОВАРОУННАХР ВА ХУРОСОН ОЛИМЛАРИНИНГ ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДА ТУТГАН ЎРНИ (АЛ-БУХОРИЙ, МУСЛИМ, АТ-ТЕРМИЗИЙ) Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент- 2020

³ <https://moturidiy.uz/oz/news/1528>



«Imom Buxoriy saboqlari» nomli jurnalda ham buyuk muhaddisning hayoti yoʻllari va uning asarlariga bagʻishlangan koʻplab maqolalar chop etilmoqda. Ayni paytda buyuk muhaddislar al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj va at-Termiziyning hayoti va asarlariga bagʻishlanib, hozirgi zamon arab olimlari tomonidan soʻnggi yillarda nashr etilgan koʻplab asarlardan ham mazkur tadqiqotda keng foydalanildi. Shular jumlasidan eng avvalo, quyidagilarni alohida koʻrsatish mumkin: Alloma ash-shayx Abdussalom al-Muborakfuriyning «Siyrat al-Imom al-Buxoriy», Doktor Nuriddin Itirning «Al-Imom at-Termiziy val-muvozanat bayna Jomeyhi va bayn as-Sahihayn», olim Mahmud al-Foxuriyning «Al-Imom Muslim ibn al-Hajjoj» nomli tadqiqotlarini va shuningdek, arab olimlarining Al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, at-Termiziyning hayoti va ijodiga bagʻishlab, yaratilgan qator tadqiqotlar va risolalarini ham aytib oʻtish kerak. Ushbu asarlar roʻyxati tadqiqotning biografiya qismida toʻliq keltiriladi. Ushbu asarlar buyuk muhaddislar al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj va at-Termiziyning hayoti va asarlariga bagʻishlanib yaratilgan koʻpdan-koʻp yozma manbalarni qiyosiy oʻrganish asosida vujudga kelgan. Shunga binoan aytish mumkinki, bu tarzda ilmiy tadqiqot nafaqat mamlakatimiz, balki jahon sharqshunosligida ham muayyan ahamiyatga ega. Unda uch buyuk muhaddisning ibratlarga toʻliq hayot yoʻllari yozma manbalarga tayangan holda, tadrijiy oʻrganilib, mufassal bayon qilindi. Buyuk muhaddislar ilmiy-maʼnaviy merosi, ayniqsa, ularning asosiy asarlari imkon qadar kompleks tadqiq etilib, ularning har biriga xos qimmatli jihatlari alohida koʻrsatilgan. Al-Buxoriy, Muslim va at-Termiziyning shoh asarlari Sharq xalqlari ijtimoiy-maʼnaviy tafakkurining noyob durdonalari ekanligi alohida qayd etilib, uch buyuk muhaddisning hayoti va ilmiy faoliyatiga daxldor qator manba va adabiyotlar (ayniqsa, arab tilida) ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. Hadis ilmining tarixiga doir maxsus bobda keltirilgan maʼlumotlar hadisshunosligimizda maʼlum darajada ahamiyatga ega.⁴

Hadis manbalarini ilmiy tahlil qilish ham islomshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan boʻlib, soha boʻyicha chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Mana shu maqsadda Samarqandda hadis ilmiy maktabining ochilishi soha rivojiga katta taʼsir koʻrsatadi. Jumladan, hadisshunoslik manbalari, hadis toʻplamlaridagi matnlarni tahlil qilish, hadis maʼnolarini toʻgʻri talqin qilish hozirgi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur sohada «Abdulloh Subazmuniyning «Kashfu-l-osor» asari hadis ilmiga oid manba», «Abu Hafs Nasafiyning «Kitobu-l-qand fi maʼrifat ulamo Samarqand» asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi boʻyicha muhim manba», «Hakim Termiziyning «Navodiru-l-usul» asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba», «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan oʻrni (Buxoriy, Muslim, Termiziy)», «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qoʻshgan hissasi», «Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojida oʻrni», «Imom Buxoriyning «at-Tarix al-kabir» asari hadis ilmiga oid muhim manba», «Hadislarning diniy aqidaparastlikka qarshi mohiyati» mavzularidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Akademiyada amalga oshirilayotgan Imom Buxoriy «Al-Jomeʼ as-sahih» asaridagi axloq-odobga bagʻishlangan hadislarning talqiniga bagʻishlangan grant loyihasi ham bu boradagi muhim ilmiy tadqiqotlardan sanaladi.⁵

Demak, hozirgi kunda ham bosh vazifamiz ilmni targʻib qilish, yoshlarning ilmga boʻlgan qiziqishini ragʻbatlash, ularning ilm ahllariga boʻlgan hurmatini oshirish, taʼlim-tarbiya mazmuni rivojlantirishda buyuk hadisshunos olimlarimizning shoh asarlaridan foydalangan holda talabalarda maʼnaviy axloqiy tarbiyani shakllantirish lozim. Chunki ayni taraqqiyot asrida komil insonni tarbiyalashdek murakkab vazifani amalga oshirish uchun milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish va ular orqali shaxsga maʼnaviy axloqiy taʼsir koʻrsatish muhim dolzarb masaladir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ўзбекистон халқаро ислом академияси ўзбекистон мусулмонлари идораси имом термизий халқаро илмий тадқиқот маркази убайдулла уватов мовароуннахр ва хуросон олимларининг

⁴ ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ ЎЗБЕКИСТОН МУСУЛМОНЛАРИ ИДОРАСИ ИМОМ ТЕРМИЗИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ УБАЙДУЛЛА УВАТОВ МОВАРОУННАХР ВА ХУРОСОН ОЛИМЛАРИНИНГ ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДА ТУТГАН ҲРНИ (АЛ-БУХОРИЙ, МУСЛИМ, АТ-ТЕРМИЗИЙ) Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент- 2020

⁵ <https://moturidiy.uz/oz/news/1528>



ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-бухорий, муслим, ат-термизий) ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси тошкент- 2020

2. <https://moturidiy.uz/oz/news/1528>
3. ўзбекистон халқаро ислом академияси ўзбекистон мусулмонлари идораси имом термизий халқаро илмий тадқиқот маркази убайдулла уватов мовароуннаҳр ва хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-бухорий, муслим, ат-термизий) ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси тошкент- 2020
4. <https://moturidiy.uz/>

